



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, mart.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)

Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.

Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.

Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari

Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.

Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjajevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

XODIMLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI, KORPORATIV MADANIYAT VA MEHNAT UNUMDORLIGI O'RTASIDAGI UZVIY BOG'LIQLIKNI CHUQUR TAHLIL QILISH.....	8
Shoabdurashidova Mahina Jaxongir qizi, Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ESG TAMOYILLARI INTEGRATSIYASI ORQALI KORXONALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH.....	15
Jolg'ashova Nozima Mansurovna, T.D. Mamatkulov	
АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	21
Давлетова Адиля Азатбаевна, Сапаев Дилшод Хушнудович	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHI IQTISODIY O'SISHNING OMILI.....	27
Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich	
“LOKOMOTIV” MEHMONXONASI ZAMONAVIY SHAROITLARDA XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	31
Masharipov O'rolbek Ozod o'g'li, Khodjaeva Nodiraxon Abdurashidovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	36
Boybosinova Shaxlo Meles qizi, Ostonov Muhiddin Bahridin o'g'li	
AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONIDA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH VA BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	44
Qodirjonov Dilshodjon Qosimjon o'g'li, Xolmirzayev Ulug'bek	
BUXGALTERIYA HISOBINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	49
Igamberdieva Kunduz Ergashevna, O'razova Marjona Valiboy qizi	
ВЛИЯНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ.....	55
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Давронов Дониёрбек Заррухович	
ANALYSIS OF OUR COUNTRY'S POSSIBILITIES FOR ACCESS TO THE SEA THROUGH THE KABUL CORRIDOR.....	61
Khuzhamov Babur, Khudoyberdiev Diyorbek, Jumaboev Bekzod	
O'ZBEKISTONDA ESK.UZ TIZIMINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA ISTIQBOLLARI	69
M.J.Nurmetova, Baxtyorov Ahadbek Doniyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KRIPTOVALYUTALARNING JORIY FOYDALANISHINI TAHLIL QILISH.....	77
Qobilova N. Q., Normurodov X. E.	
MOLIYAVIY RISKLAR VA ULARNI XALQARO MIQYOSDA BOSHQARISH USULLARI.....	83
Toirov Bobur G'ofir o'g'li, F.U.Umarov	
SUN'IY INTELEKTNING INSON ONGIGA VA DAVLAT KORXONALARINI RAQAMLASHTIRISHGA TA'SIRI.....	90
Uskanboyev Temurbek Ismoil o'g'li, F.U.Umarov	
IQTISODIYOT TARMOQLARI YUKLARINI TASHISHNI TASHKIL ETISH.....	97
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	



TARIXIY OBIDALAR ASOSIDA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH.....	102
Boltaboyeva Maqsuda Matjonboy qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INTERNET VA IJTIMOY TARMOQLARNING ROLI.....	105
Abdumutalova Shahzoda Yodgorjon qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
ФИНАНСИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ЗА СЧЕТ ИНВЕСТИЦИОННЫХ И ПАЕВЫХ ФОНДОВ	109
Дилшод Насиров, Сухроб Хайитов, Самира Каримова	
КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК УСЛОВИЕ ОСМЫСЛЕННОГО РАЗГОВОРА ОБ ЭКОНОМИКЕ	115
Зайналов Ж. Р., Абдумажидов Ш. Ш.	
ГОСУДАРСТВЕННЫЕ РАСХОДЫ КАК ПОКАЗАТЕЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТРАНЫ.....	119
Юсупов Азаматжон Икромович, Ишонкулова Феруза Асатовна	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ В ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ УСЛУГ	124
Насиров Дилшод Фархадович, Казакбаева Динара, Максетбаева Гулпаршин	
ВЕЛИКОЕ УСКОРЕНИЕ: КОНВЕРГЕНЦИЯ ИИ И БЛОКЧЕЙНА КАК НОВАЯ ИНВЕСТИЦИОННАЯ ПАРАДИГМА 2026 ГОДА.....	129
Насиров Дилшод Фархадович, Синько Юлианна Викторовна, Шамшетова Жамила Муса кызы	
KORXONANING IQTISODIY SALONIYATINI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI	134
Turg'unpulatov Ziyovuddin Alijon o'g'li, Odilov Xamidillo Mahmudjon o'g'li	
РОЛЬ БЛОКЧЕЙН-ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОЗРАЧНОСТИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ	139
Дилмуродов Журабек Улугбек угли, Белалова Гузаль Анваровна	
OPERATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	144
Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li, X.M. Odilov	
HAVO IFLOSLANISHI VA YASHIL TABIAT YOMONLASHUVI NATIJASIDA SOG'LIQNI SAQLASH XARAJATLARINING OSHISHI: IQTISODIY TAHLILI	150
Sotvoldiyeva Rayxona Abdurasul qizi, Odilov Xamidillo	
TIJORAT BANKLARIDA PUL MABLAG'LARI HARAKATI VA LIKVIDLIK TAHLILI	155
Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi, X.M.Odilov	
NOMINAL VA REAL YAIM VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDAGI AHAMIYATI	162
Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich, Jo'rayev Toshbolta To'xtayevich	
YASHIL IQTISODIYOT: ZAMONAVIY RIVOJLANISH PARADIGMASI SIFATIDA TAHLILI.....	167
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
РОЛЬ БРЕНДИНГА В ИННОВАЦИОННОЙ СИСТЕМЕ МАРКЕТИНГА.....	172
Насиров Дилшод Фархадович, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли, Толибжонов Умеджон Одилович	
AMIR TEMURNING IJTIMOY, IQTISODIY VA SIYOSIY QARASHLARI	176
Lola Xalikova Nazarovna, Mutabar Absamatova Jamshid qizi	
ИНТЕГРАЦИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ВОЗМОЖНОСТИ И УГРОЗЫ В КОНТЕКСТЕ НОВОЙ РЕГИОНАЛЬНОЙ АРХИТЕКТУРЫ.....	181
Убайдуллаев Сирожиддин	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ROLI	186
Fazilat Esirgarpovna Jomonqulova, Nizomov Murod, Madinabonu Temirova Otabek qizi	
ПОТРЕБИТЕЛЬСКАЯ КОРЗИНА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ	191
Ишонкулова Феруза Асатовна, Ибрагимова Ширин	



IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI, AHAMIYATI VA ULARNING ZAMONAVIY GLOBAL IQTISODIYOTDAGI TRANSFORMATSIYASI	195
Abdukaxxorova Durdona Iloxomovna, Muhabbat Hakimova Fayziyevna	
YANGI O'ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIGI VA UNING RIVOJLANISHI.....	201
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich, Abdullayev Izzatbek Akramxon o'g'li	



YANGI O'ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIGI VA UNING RIVOJLANISHI

Ilmiy rahbar:

Ataniyazov Jasurbek Xamidovich

TDIU Xalqaro moliya kafedrasi mudiri, professor, DSc

Abdullayev Izzatbek Akramxon o'g'li

TDIU Moliya fakulteti 3-kurs talabasi

ORCID: 0009-0007-5743-8002

E-mail: izzatbekabdullayev2005@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning milliy iqtisodiyotga ta'siri ilmiy tahlil qilinadi. "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi ochiq iqtisodiyot, bozor mexanizmlari va davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishga qaratilgan tizimli islohotlarni ifodalaydi. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik moliyaviy resurslarni jalb qilish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Maqolada investitsion kreditlash, grant dasturlari, texnik yordam va siyosiy-maslahat ko'magi asosiy yo'nalishlar sifatida ko'rib chiqiladi. Energetika, transport, bank tizimi, ta'lim, sog'liqni saqlash va ekologiya sohalaridagi loyihalarning iqtisodiy samaradorligi alohida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tashqi qarzning o'sishi va institutsional muammolar dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Maqola yakunida hamkorlikni takomillashtirish, grantlar ulushini oshirish va yashil hamda raqamli moliyaga ustuvorlik berish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, xalqaro moliya institutlari, iqtisodiy islohotlar, investitsiyalar, makroiqtisodiy barqarorlik, barqaror rivojlanish.

Abstract: This article presents a scientific analysis of the impact of cooperation with international financial institutions on the national economy under the New Uzbekistan concept. The "New Uzbekistan" concept encompasses a set of systemic reforms aimed at introducing open economy principles and modernizing public administration. Cooperation with international financial institutions serves as a key factor in attracting financial resources and ensuring macroeconomic stability. The article examines the main areas of collaboration, including investment lending, grant programs, technical assistance, and policy advisory support. Special attention is given to the economic efficiency of projects in energy, transport, banking, education, healthcare, and environmental sustainability. At the same time, growing external debt and institutional challenges in project implementation remain pressing concerns. The article concludes with practical recommendations for enhancing cooperation, increasing the share of grant financing, and prioritizing green and digital finance instruments.

Key words: New Uzbekistan, international financial institutions, economic reforms, development finance, macroeconomic stability, sustainable development.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ влияния сотрудничества с международными финансовыми институтами на национальную экономику в условиях Нового Узбекистана. Концепция «Нового Узбекистана» представляет собой комплекс системных реформ, направленных на внедрение принципов открытой экономики и модернизацию государственного управления. Сотрудничество с международными финансовыми институтами выступает ключевым фактором привлечения финансовых ресурсов и обеспечения макроэкономической стабильности. В статье рассматриваются основные направления: инвестиционное кредитование, грантовые программы, техническая помощь и консультативная поддержка. Особое внимание уделяется экономической эффективности проектов в сферах энергетики, транспорта, банковского сектора, образования, здравоохранения и экологии. Вместе с тем актуальными остаются проблемы роста внешнего долга и институциональные барьеры реализации проектов. В заключение разработаны научно-практические рекомендации по расширению грантового финансирования и приоритизации «зелёных» и цифровых финансовых инструментов.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, международные финансовые институты, экономические реформы, инвестиции, макроэкономическая стабильность, устойчивое развитие.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy va institutsional islohotlar "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot modeli bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu model ochiq bozor iqtisodiyotiga o'tish, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, xususiy sektor rolini kuchaytirish hamda mamlakatning global moliyaviy tizimga integratsiyalashuvini jadallashtirishni nazarda tutadi.

Mazkur jarayonda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik iqtisodiy islohotlarni moliyaviy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlovchi muhim strategik mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lining mantiqiy davomi sifatida qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ustuvor yo'nalishlarini aniq maqsadli ko'rsatkichlar asosida belgilab berdi.

Strategiyada jami 100 ta maqsad, 369 ta chora-tadbir va 306 ta indikator nazarda tutilgan bo'lib, iqtisodiy rivojlanish yo'nalishida yalpi ichki mahsulotni 160 milliard AQSh dollariga yetkazish, aholi jon boshiga daromadni 4 000 AQSh dollariga oshirish, eksport hajmini 45 milliard AQSh dollarigacha kengaytirish kabi muhim vazifalar belgilangan [1].

Mazkur strategik maqsadlarga erishishda xalqaro moliya institutlari, jumladan, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Yangi O'zbekiston sharoitida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning iqtisodiy mazmuni, rivojlanish yo'nalishlari va natijadorligini kompleks ilmiy tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik masalasi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, bu borada xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

J.X. Ataniyazov va hammualliflar tomonidan tayyorlangan o'quv qo'llanmada xalqaro moliya institutlarining asosiy funksiyalari, kreditlash mexanizmlari hamda texnik yordam dasturlari batafsil yoritilgan bo'lib, ular milliy iqtisodiyot rivojida muhim resurs manbai sifatida baholanadi [2].

Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotini o'rganishda B.A. Islamov va hammualliflar xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik rivojlangan davlatlar tajribasida iqtisodiy o'sishni tezlashtiruvchi muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar [3]. Mazkur yondashuv O'zbekiston sharoitida ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mahmudov N.M. va hammualliflar tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini tahlil qilib, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik davlat siyosati va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlashini asoslab berganlar [4].

Bobakulov T.I. va Abdullayev U.A. xalqaro valyuta-kredit munosabatlarining nazariy asoslarini yoritib, xalqaro moliya institutlari global moliyaviy tizimning ajralmas qismi ekanligini ko'rsatadilar [5].

Vahobov A.V. xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida moliyaviy institutlar va ularning mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirini tahlil qilib, institutsional hamkorlikning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi [6].

Tadjibayeva B.A. va Xajibakiev Sh.X. tomonidan yaratilgan darslikda xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida moliya institutlarining roli hamda ularning integratsion jarayonlardagi o'rni yoritib berilgan [7].

Davlat qarzini boshqarish masalalari Shernaev A. va Kamolov O. tomonidan chuqur o'rganilib, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik davlat tashqi qarzini samarali boshqarishda muhim vosita ekanligi asoslab berilgan [8].

Shuningdek, Ataniyazov va hammualliflar ushbu yo'nalishda davlat qarzini boshqarishning xalqaro tajribalarini yoritganlar [9]. Shernaev A.A. ilmiy maqolasida O'zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarish masalalari tahlil qilinib, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning institutsional va amaliy jihatlari ochib berilgan [10].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy ma'lumotlari xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning amaliy natijalari, investitsion loyihalar hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi [11].

Yuqoridagi ilmiy manbalar xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning nazariy va amaliy asoslarini keng yoritib beradi. Shu bilan birga, Yangi O'zbekiston sharoitida ushbu hamkorlikning samaradorligini kompleks baholash, shuningdek, "yashil" va raqamli moliya yo'nalishlarida rivojlantirish masalalari istiqbolli ilmiy izlanishlarni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot metodlarining kompleks yondashuvi qo'llanildi. Xususan, tizimli tahlil usuli orqali xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning tarkibiy elementlari, ularning o'zaro bog'liqligi hamda milliy iqtisodiyotga ta'siri o'rganildi.



Qiyosiy tahlil yordamida O'zbekiston tajribasi boshqa rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti bilan solishtirildi. Empirik tahlil jarayonida 2017–2024-yillarni qamrab olgan rasmiy statistik ma'lumotlar, xalqaro moliya institutlarining yillik hisobotlari, shuningdek, milliy strategik va normativ-huquqiy hujjatlardan axborot manbai sifatida foydalanildi.

Shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan iqtisodiy maqsadlar xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi loyihalar bilan muvofiqlik darajasi nuqtai nazaridan baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari Yangi O'zbekiston davrida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik sezilarli darajada faollashganini ko'rsatdi. 2024–2025-yillarga kelib, O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 145–147 milliard AQSh dollariga yetdi, real iqtisodiy o'sish sur'ati esa o'rtacha 7–7,7 foizni tashkil etdi. Bu holat 2030-yilga belgilangan 160 milliard AQSh dollari miqdoridagi maqsadga erishish imkoniyatlari yuqori ekanini tasdiqlaydi.

Xalqaro moliya institutlari ishtirokida energetika, transport va kommunal infratuzilma sohalarida yirik investitsion loyihalar amalga oshirildi. Natijada transport xizmatlari hajmini 301 trillion so'mga yetkazish, elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini 25 ming MVt gacha oshirish rejalashtirildi.

Eksport hajmi 33–34 milliard AQSh dollariga yetib, 2030-yilgacha 45 milliard AQSh dollariga yetkazish uchun zarur iqtisodiy zamin yaratildi. Ijtimoiy-iqtisodiy natijalar ham ijobiy bo'lib, ishsizlik darajasi 6,8 foizdan 4,9 foizgacha, kambag'allik darajasi esa 11 foizdan 5,8 foizgacha qisqardi. Ushbu ko'rsatkichlar xalqaro moliya institutlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan islohotlarning ijtimoiy samaradorligini yaqqol namoyon etadi (1-jadval).

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	2021-yil		2022-yil		2023-yil		2024-yil		2025-yil	
		mln doll	Jamiga nisbatan	mln doll	Jamiga nisbatan	mln doll	Jamiga nisbatan	mln doll	Jamiga nisbatan	mln doll	Jamiga nisbatan
	Davlat tashqi qarzi, jami	23 582	100%	25 914	100%	29 639	100%	33 726	100%	39 821	100%
1	Xalqaro moliya institutlari	10 926	46%	13 804	53%	16 627	56%	19 143	57%	22 313	56%
	Osiyo taraqqiyot banki	5 219	22%	6 030	23%	6 441	22%	7 415	22%	8 355	21%
	Jahon banki	4 327	18%	5 527	21%	6 570	22%	7 639	23%	8 949	22%
	Islom taraqqiyot banki	885	4%	904	3%	911	3%	946	3%	1 060	3%
	Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki	4	0%	570	2%	1 321	4%	1 652	5%	2 282	6%
	Xalqaro valyuta jamg'armasi	386	2%	367	1%	811	3%	669	2%	628	2%
	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki	17	0%	132	1%	174	1%	341	1%	457	1%
	Boshqa XMilar (Qishloq xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi, "OPEK" jamg'armasi va YEIB)	88	0%	274	1%	399	1%	481	1%	582	1%
2	Xorijiy hukumatlarning moliya tashkilotlari	10 051	43%	9 519	37%	9 614	32%	10 448	31%	11 661	29%
3	Investorlar	2 605	11%	2 591	10%	3 397	11%	4 135	12%	5 847	15%

1-jadval. Davlat tashqi qarzi to'g'risida (qarz beruvchilar kesimida), mln AQSh dollari.¹

Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki, davlat tashqi qarzining yarmidan ko'pi xalqaro moliya institutlariga to'g'ri keladi. Ular orasida eng yirik kreditorlar Jahon banki hamda Osiyo taraqqiyot banki hisoblanadi.

Shu bilan birga, xorijiy hukumatlarning moliya tashkilotlaridan jalb qilinayotgan moliyaviy resurslar hajmi bosqichma-bosqich kamayish tendensiyasini namoyon etmoqda. Ayni paytda mamlakatning investitsion jozibadorligi ortib borayotgani hisobiga investorlarning davlat tashqi qarzidagi ulushi ham ijobiy o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda (2-jadval).

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

2-jadval. Davlat tashqi qarzi to'g'risida ma'lumot (tarmoqlar kesimida), mln AQSh dollari²

T/r	Tarmoqlar nomi	2021-yil		2022-yil		2023-yil		2024-yil		2025-yil	
		mln doll	Jamiga nisbatan foizda	mln doll	Jamiga nisbatan foizda	mln doll	Jamiga nisbatan foizda	mln doll	Jamiga nisbatan foizda	mln doll	Jamiga nisbatan foizda
	Davlat tashqi qarzi, jami	23 582	100%	25 914	100%	29 639	100%	33 726	100%	39 821	100%
	shu jumladan:										
1	Budjetni qo'llab-quvvatlash uchun	5 862	25%	8 647	33%	11 738	40%	15 291	45%	19 838	50%
2	Yoqilg'i-energetika sanoati	5 884	25%	5 822	22%	5 791	20%	5 748	17%	5 603	14%
3	Transport va transport infratuzilmasi	2 542	11%	2 509	10%	2 771	9%	2 852	8%	3 060	8%
4	Qishloq va suv xo'jaligi	2 428	10%	2 537	10%	2 657	9%	2 918	9%	3 338	8%
5	Uy-joy kommunal xo'jaligi	2 197	9%	2 299	9%	2 610	9%	2 856	8%	3 188	8%
6	Tadbirkorlik faoliyati va sanoat ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash	1 383	6%	1 066	4%	1 078	4%	841	2%	619	2%
7	Kimyo sanoati	1 196	5%	1 026	4%	896	3%	764	2%	662	2%
8	Sog'liqni saqlash, ta'lim, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari hamda boshqa sektorlar	2 091	9%	2 008	8%	2 098	7%	2 456	7%	3 514	9%

Ushbu jadvalda mamlakat tashqi qarzining tarmoqlar kesimida qanday taqsimlanayotgani aks ettirilgan. Jumladan, 2025-yilda mamlakat tashqi qarzining 50 foizi budjetni qo'llab-quvvatlash yo'nalishiga to'g'ri kelmoqda.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar, xususan, yoqilg'i-energetika sanoati, transport va transport infratuzilmasi, qishloq va suv xo'jaligi hamda uy-joy kommunal xo'jaligi sohalari davlat xarajatlarining asosiy yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik Yangi O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu jarayon davlat moliyaviy boshqaruvini yanada takomillashtirish va fiskal barqarorlikni mustahkamlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu sababli tashqi moliyalashtirishni “O'zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan aniq iqtisodiy natijalar bilan uzviy bog'lagan holda samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Strategiya doirasida yashil iqtisodiyot, raqamli moliya va innovatsion loyihalarga ustuvorlik berilishi xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etadi.

Ayniqsa, grantlar va aralash moliyalashtirish instrumentlarini kengaytirish hamda xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligi mamlakatning barqaror, inklyuziv va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. “O'zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan aniq, raqamli va maqsadli ko'rsatkichlar ushbu hamkorlikni tizimli, natijaga yo'naltirilgan hamda samarali tarzda amalga oshirish imkonini yaratmoqda.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik nafaqat moliyaviy resurslarni jalb etish, balki institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiy boshqaruv sifatini oshirish hamda global moliyaviy tizimga integratsiyani mustahkamlashning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, ushbu hamkorlik samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- tashqi moliyalashtirishni aniq iqtisodiy natijalar va ustuvor yo'nalishlar bilan uzviy bog'lagan holda boshqarish;

² Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.



- grantlar va aralash moliyalashtirish instrumentlaridan samarali foydalanishni kengaytirish;
 - xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish orqali investitsion muhitni yanada yaxshilash;
 - yashil iqtisodiyot, raqamli moliya va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga ustuvor ahamiyat qaratish;
 - xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning institutsional va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish.
- Natijada, mazkur yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini mustahkamlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. — Lex.uz.
2. Ataniyazov J.X., Xamidova F.A., Po'latova M.B. *Xalqaro moliya institutlari: o'quv qo'llanma*. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020.
3. Islamov B.A., Ismoilova N.S., Hasanov T.A., Danaboyev I.T., Zikriyoev A.S. *Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti: darslik*. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
4. Mahmudov N.M., Zoxidov G'.E., Ismoilova N.S., To'raev N.M. *Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish: darslik*. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
5. Bobakulov T.I., Abdullayev U.A. *Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari: darslik*. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2021.
6. Vahobov A.V., Tadjibayeva B.A., Xajibakiyev Sh.X. *Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik*. — Toshkent: Baktria Press, 2015.
7. Shernaev A., Kamolov O. *Davlat qarzlarini boshqarish: darslik*. — Toshkent: Iqtisodiyot-moliya, 2019.
8. Ataniyazov J., Almardonov E., Abdullayev A. *Upravleniye gosudarstvennym dolgom: uchebnoye posobiye*. — Toshkent: Iqtisodiyot-moliya, 2019.
9. Shernaev A.A. (2023). O'zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarish. *Science and Education*, 4(6), 860–866.
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti — imv.uz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>